

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2025-yil "10"-dekabrdaqi "498"-son
buyrug'iga 17-lovva



Toshkent noshirlik-matbaa texnikumi

U S T A V I

Toshkent 2025-yil

**Toshkent shahri,
Shayhontohur tumani
Davlat xizmatlari markazi tomonidan
2025-yil ____ - ____ da
____ -son reyestr
raqami bilan
“RO‘YXATGA OLINGAN”**



**Toshkent noshirlik-matbaa texnikumi
U S T A V I**

Toshkent 2025-yil

Kasbiy ta'lim agentligi huzuridagi Toshkent noshirlik-matbaa texnikumining U S T A V I

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan kasbiy ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda – Texnikum deb yuritiladi)ning maqomi, asosiy maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Texnikum – Milliy malakalar ramkasining 3, 4 va 5 darajalariga mos keluvchi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim tashkiloti hisoblanadi.

3. Texnikum o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining (keyingi o'rinlarda – Vazirlik deb yuritiladi) buyruqlari, boshqa qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Ustav asosida amalga oshiradi.

4. Texnikum, Agentlik tasarrufida, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus Texnikum Ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufida faoliyat ko'rsatadi.

Bunda, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus Texnikumni metodik muvofiqlashtirish Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

5. Texnikum oliy ta'lim tashkilotlariga birlashtiriladi. Oliy ta'lim tashkilotlari Texnikumning ta'lim jarayoniga o'quv-metodik hamda moddiy-texnik bazasini yaxshilashga ko'maklashadi.

6. Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi tomonidan Texnikumga respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari kadrlar buyurtmachisi va sanoat hamkori sifatida birlashtiriladi.

7. Texnikumni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hamda o'quvchilarni to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Bunda, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus Texnikum, san'at va madaniyat yo'nalishidagi Texnikum, shuningdek, Agentlik tomonidan xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilish uchun tanlangan Texnikumni saqlash xarajatlari to'liq Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

8. Texnikumda boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash umumiy o'rta ta'lim tashkilotining joriy yilda 9-sinfini tamomlagan

o'quvchilar uchun – davlat granti asosida, kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan boshqa talabgorlar uchun – to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar texnikumda o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha davlat granti va to'lov-kontrakt asosida ta'lim oladilar.

9. Texnikum yuridik shaxs hisoblanib, o'zining mustaqil balansiga, alohida mol-mulkiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtampga, davlat namunasidagi blankalarga, Iqtisodiyot va moliya vazirligining G'aznachiligida va uning hududiy bo'limlarida shaxsiy hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi va boshqa hisobvaraqlariga, rekvizitlarga ega bo'ladi. O'z nomidan shartnomalar tuzadi, mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshiradi, yuklangan majburiyatlarni bajaradi hamda sud, arbitraj organlarida da'vogar va javobgar bo'ladi.

10. Texnikumda 5-may - "Kasb va mehnat kuni"ni har yili keng nishonlanadi hamda jamoatchilik, ayniqsa yoshlar orasida kasblar jozibadorligini oshirish va kasbiy ta'limni ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiriladi.

11. Texnikumning rasmiy nomlanishi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi: "Kasbiy ta'lim agentligi huzuridagi Toshkent noshirlik-matbaa texnikumi", qisqartirilgan nomi — "Toshkent noshirlik-matbaa texnikumi"; b)

ingliz tilida:

to'liq nomi: "Tashkent publishing and printing technicum under the Vocational education Agency", qisqartirilgan nomi — "Tashkent publishing and printing technicum" ;

d) rus tilida:

to'liq nomi: "Ташкентский издательско-полиграфический техникум при Агентстве профессионального образования", qisqartirilgan nomi — "Ташкентский издательско-полиграфический техникум".

12. Texnikumning joylashgan joyi (pochta manzili): Toshkent shahri, Shayhontohur tumani, X.Raxmatullayev ko'chasi, 3-uy

2-bob. Texnikum faoliyatining asosiy maqsadi va vazifalari

13. Texnikum faoliyatining asosiy maqsadi — Mehnat bozorida

raqobatbardosh, iqtisodiyot tarmoqlarida samarali ishlashga qodir, malakali kadrlar tayyorlash hamda kasbiy ta'lim dasturlarini joriy qilish orqali turli yoshdagi shaxslarning "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida ta'lim olishga bo'lgan talablarini qondirishdir.

14. Quyidagilar Texnikumning asosiy vazifalari hisoblanadi:

iqtisodiyot soha va tarmoqlarida talab yuqori bo'lgan tor doiradagi va sohaviy

kasb va mutaxassisliklar bo'yicha tizimli fikrlash, ish yuritish, zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega hamda xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar tayyorlash; ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda ushbu jarayonda hamkor ish beruvchi tashkilotlar faol ishtirok etishlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

Texnikumga qabul jarayonlarni tashkil etish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining hududiy bo'limlari bilan hamkorlikda umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida kasbga yo'naltirish tadbirlarini amalga oshirish;

Texnikumda o'quvchilarni yil davomida korxona va tashkilotlarning buyurtmalari asosida dual ta'lim shaklida o'qitishni tashkil etish; egallagan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha mehnat faoliyati bilan

shug'ullanish huquqini beradigan, yuqori darajada sifatli bilim olishni va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash; tanlab olingan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha bir yoki bir necha kvalifikatsiyani egallash jarayonida o'quvchilarning kasbiy layoqat, ko'nikma va malakalarini oshirish; mutaxassislarni tayyorlash tizimi va mazmunini jamiyat ehtiyojlaridan, fan,

madaniyat va zamonaviy innovatsion texnika yutuqlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish; o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, xalqning milliy, madaniy, tarixiy an'alariga hurmat, Vatan bilan g'ururlanish va iftixor tuyg'usini shakllantirish;

o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullaridan foydalangan holda kamol toptirish; davlat ta'lim standartlari talablariga ko'ra o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan

malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar ongiga singdirish; o'qituvchi, ta'lim oluvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'lom turmush

tarzini joriy etish, ularning bilim olishi, turmushi va dam olishi uchun yetarli shartsharoitlar yaratish; tegishli ta'lim darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlash uchun zarur moddiy-

texnika, o'quv-metodik bazani yaratish va o'quv jarayoniga yuqori ish tajribasiga ega bo'lgan amaliyotchi mutaxassislarni jalb etib borish.

15. Texnikumning kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish yo'nalishidagi asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

a) fuqarolarni ichki va tashqi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xorijiy tillarga o'qitish;

b) xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lgan fuqarolarni xorijiy ish beruvchilar talabi va xalqaro standartlar asosida kasb-hunarga tayyorlash va chet tillarga o'qitish, ularni xorijga ketishidan oldin moslashtirish tadbirlarini amalga oshirish;

d) xorijiy ish beruvchilar tanlovlarini o'tkazish va ularga xorijda ishlash uchun

talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirishda ko‘maklashish;

e) ish beruvchilar bilan ishchi kasblarga bo‘lgan ehtiyojlari va malaka talablarini o‘rganish hamda kasb-hunarga tayyorlashda hamkorlik qilish;

g) ishchi kasblarni rivojlantirish va ommalashtirish;

j) ish beruvchilarga mehnat unumdorligini oshirish uchun kerakli kasblarni aniqlashda hamda xodimlarining malakasini oshirishda ko‘maklashish;

z) ishchi kasblar bo‘yicha kasbiy malakani baholash va tasdiqlash;

k) ishsiz va ish qidirayotgan fuqarolarni kasbga yo‘naltirish, maslahatlar berish.

16. Faoliyatning asosiy turlarini amalga oshirish doirasida texnikum quyidagi asosiy kasbiy ta‘lim dasturlarini amalga oshirishi mumkin.

a) Texnikumda umumta‘lim tashkilotlarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda boshlang‘ich kasbiy ta‘lim darajasida umumta‘lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi;

Texnikumda umumta‘lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda ta‘lim dasturlarining davomiyligi 2 yildan iborat bo‘ladi. Bunda, kadrlar tayyorlash kunduzgi va dual ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi;

b) Texnikumda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich kasbiy (boshlang‘ich professional yoki kasb-hunar) ta‘lim ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxslardan shakllantirilgan guruhlar uchun boshlang‘ich kasbiy ta‘lim dasturlarida; o‘qishning normativ muddati kasblarning murakkabligidan kelib chiqqan holda ikki yilgacha bo‘lgani holda o‘quv jarayoni 22 – 94 hafta davom etishi zarur;

Bunda, kadrlar tayyorlash kunduzgi, dual va kechki ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi; o‘qishning normativ muddati kasblarning murakkabligidan kelib chiqqan holda

ikki yilgacha bo‘lgan holda o‘quv jarayoni 22 – 94 hafta davom etishi zarur;

Bunda, o‘qish kunduzgi, dual va kechki ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi;

ushbu ta‘lim dasturida umumta‘lim fanlarini o‘qitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

e) Texnikumda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich, o‘rta kasbiy (boshlang‘ich professional yoki kasb-hunar) ta‘lim ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxslardan shakllantirilgan guruhlar uchun oliy ta‘lim tashkilotlarining tegishli bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari dasturlari bilan integratsiyalashtirilgan o‘rta maxsus kasbiy ta‘lim dasturlarida; o‘qishning normativ muddati kamida 2 yil bo‘lgan holda kadrlar tayyorlash

kunduzgi, dual va kechki ta‘lim shakllarida olib boriladi.

17. Texnikumda ro‘yxati Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha turli darajadagi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus kasbiy ta‘lim dasturlarining o‘zaro muvofiqligi va uzviyligi ta‘minlangan holda yaxlit ta‘lim dasturlari joriy etilishi mumkin.

18. Texnikumda qo‘shimcha kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha

kvalifikatsiya va kompetensiyalarni egallash, jumladan, tegishli toifalar bo'yicha avtotransport vositalari hamda traktorlarni boshqarish bo'yicha milliy haydovchilik guvohnomalarini olish istagidagi aholining turli qatlamlari uchun o'qitish muddati 6 oydan oshmagan intensiv, shuningdek turli yoshdagi fuqarolar va ishsizlarni kasbhunar, xorijiy tillar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha qo'shimcha o'quv kurslari tashkil etilishi mumkin.

19. Texnikum O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi

huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan yuritiladigan milliy reyting natijalari asosida rag'batlantiriladi.

Bunda rag'batlantirishdan tushgan mablag'lar qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq moddiy-texnika bazani mustahkamlash, zarur jihozlarni xarid qilish, laboratoriya va ustaxonalarni barpo etish, rahbar va xodimlarni rag'batlantirish, xodimlarni malaka oshirish va tajriba almashish uchun xorijga yuborish maqsadlar uchun yo'naltirishga ruxsat beriladi.

3-bob. O'quv tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish

20. Texnikumda idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar o'quv-metodik rahbarlik qilish hamda bu sohada davlat siyosatini yuritish Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

21. Texnikumda: kechki ta'lim shaklida o'qish muddati va semestrlar davomiyligi amaldagi qonunchilikda belgilangan tartib asosida shakllantiriladi; o'quvchilar o'qitish kurslari bo'yicha guruhlariga, o'qitish yo'nalishi bo'yicha esa bo'limlarga birlashtiriladi; guruhlarda o'quvchilar soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan me'yorlar asosida shakllantiriladi; o'quv yilining boshlanishi, tugallanishi, haftalik yuklama, ta'tillarning muddati, davomiyligi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayoni yakunlarini belgilash shakllari, amaliyot turlari va yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi hamda ta'lim jarayoniga tegishli boshqa talablar qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejalari va boshqa normativ hujjatlar asosida belgilanadi; texnikumda barcha turdagi o'quv mashg'ulotlari davomiyligi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi; texnikumda o'qitish kursi tugagandan keyin nazoratlarning yakuniy natijalari asosida o'quvchini navbatdagi kursga o'tkazish, kursda qoldirish, o'qishdan chetlashtirish to'g'risida qaror qabul qilinadi. O'quvchilarni kursdan kursga o'tkazish, o'qishdan chetlashtirish, kursda qoldirish pedagogik kengashning qarori va texnikum direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi; o'quvchilarni texnikumda o'qitish ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro hamkorligi asosida quyidagicha amalga oshiriladi:

texnikum o'quvchilarining muassasa va tashkilotlarda tizimli asosda ishlab chiqarish amaliyot o'tashi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, ish beruvchilarni o'quv jarayoniga foydalaniladigan o'quv-normativ hujjatlarni ishlab chiqishga jalb etish;

Texnikumga o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini xorijiy korxona va tashkilotlarda amaliyotni tashkil etish (shartnoma imzolagan holda); bevosita ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonlarida ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni qo'llab, texnikum hamda muassasa va tashkilotlarning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlash; o'quvchilarning o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti belgilangan normativ

hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi; texnikumda tahsil olayotgan barcha kurs o'quvchilarining butun o'qish davrida

bilim, ko'nikma va malakalarini baholash natijalarini "Professional ta'lim jarayonlarini boshqarish — EMIS PT" axborot tizimi orqali yuritiladi;

o'quv reja va fan dasturlarining barcha talablarini bajargan o'quvchi texnikum Pedagogik kengashining qarori va direktorning buyrug'i bilan Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlariga qo'yiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi belgilangan qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi;

Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan ta'lim olgan mutaxassisligi (kasbi) va egallagan malakasi (malakalari) ko'rsatilgan holda davlat namunasidagi diplom beriladi;

Diplomga butun o'qish davrida o'zlashtirilgan fan (modul)lar ro'yxati, o'tilgan soatlar hajmi, ularni o'zlashtirish darajasi (baholar) va Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari ko'rsatilgan qo'shimcha varaq ilova qilinadi; texnikumni tamomlaganlik to'g'risidagi davlat namunasidagi diplom mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradi;

Texnikumda umumta'lim maktablari 9-sinf bitiruvchilari negizida shakllantirilgan guruh bitiruvchilariga ta'limni keyingi bosqichini va/yoki mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan boshlang'ich kasbiy ta'lim darajasidagi davlat namunasidagi diplom va unga ilova beriladi.

texnikumda o'qituvchilarning o'quv-metodik va ilmiy ijod qilishlari uchun sharoit yaratiladi va rag'batlantiriladi.

22. Texnikumda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar umumbashariy qadriyatlarga va milliy an'analarga asoslanadi.

Texnikumda:

vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga qodir shaxsni tarbiyalash o'quv jarayoni bilan uzviy ravishda oila, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoat tashkilotlari ishtirokida amalga oshiriladi; yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy-madaniy, tarixiy an'analarga, urf-odatlariga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli shakllarini ommalashtirish maqsadida texnikumning veb-

sayti va ijtimoiy sahifalarini yaratish yo'lga qo'yiladi; o'quvchilarning o'z intellektual darajasini oshirishlari uchun badiiy adabiyotlarni o'qishga qiziqtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot va turli xil tanlov ishlarini olib borish yangi adabiy kitoblarning taqdimotini uyushtirish va targ'ib qilish orqali amalga oshiriladi;

Texnikumdagi axborot-resurs markazlarini yangi zamonaviy o'quv jihozlari, yangi o'quv va badiiy adabiyotlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlanadi;

Texnikumdagi qo'shma ta'lim dasturlari asosida ochilgan yangi yo'nalishlar bo'yicha axborot-resurs markazlarini zamonaviy xorijiy o'quv adabiyotlar bilan ta'minlanib boriladi; texnikum o'quvchilarida muloqot madaniyatining zamonaviy shakllarini

yaratish maqsadida tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda bahs-munozaralar va davra suhbatlari uyushtiriladi; chet tillaridagi badiiy adabiyotlar, ilmiy materiallarni o'rganish va ta'lim-

tarbiyaga tatbiq etish maqsadida videoroliklar, bukletlar, flayerlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi;

yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, milliy g'oyalarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil dunyoqarashga va fikrlashga ega bo'lgan ma'naviy boy va har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishda milliy-madaniy, tarixiy an'analarga, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli xil shakllari qo'llaniladi; o'quvchilarda kasbiy ta'lim tashkiloti va tanlagan kasbni egallash bo'yicha berilgan imkoniyatlardan g'ururlanish hissini oshirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqiladi; o'quv yilining birinchi kuni Agentlik va uning hududiy boshqarmasi, hokimiyat oliy ta'lim muassasasi, ish beruvchilar vakillari, ota-onalar va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida o'quvchilarning tantanali saflanishi, O'zbekiston Respublikasi bayrog'ini olib chiqish, Davlat madhiyasini ijro etish bilan boshlanadi va belgilangan tadbir asosida davom ettiriladi; birinchi mashg'ulot O'zbekiston Respublikasining milliy mustaqillik g'oyalariga bag'ishlanadi;

Texnikumda manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda o'quvchilar hamda ularning ota-onalari ishtirokida yoshlarga oid muhim masalalarni muhokama etish uchun muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazib boriladi.

4-bob. Kasbiy ta'lim tashkilotining tuzilishi

23. Texnikum shtatlari jadvali amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi.

24. Texnikumda pedagogik kengash, metodik kengash, ota-onalar kengashi tuziladi va faoliyat yuritadi.

25. Texnikum faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun texnikum pedagogik kengashi (keyingi o'rinlarda — Kengash) tashkil etiladi. Kengash to'g'risidagi nizom va uning ish rejasi Kengash yig'ilishida tasdiqlanadi.

Kengash tarkibi direktor tomonidan tasdiqlanadi. Kengash tarkibiga, direktor o‘rinbosarlari, kotib, pedagog kadrlar hamda texnikum birlashtirilgan oliy ta‘lim tashkiloti, ish beruvchilar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va vasiylik kengashi vakillari kiradi;

Kengash qarorlarining ijrosi tegishligi bo‘yicha direktor va uning o‘rinbosarlari tomonidan ta‘minlanadi.

26. Kengashning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

texnikum faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Agentlik hamda tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarining buyruqlari, Toshkent shahri kasbiy ta‘lim boshqarmasi ko‘rsatmalari va topshiriqlari ijrosi ta‘minlanishini tashkil qilish; texnikumning yillik ish rejasi va boshqa rejalarni tasdiqlash; budjetdan tashqari mablag‘lar sarf-xarajati hisobotlarini ko‘rib chiqish;

texnikum pedagogik jamoasining faoliyatini o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini ta‘minlashga, o‘quvchilarga ta‘lim berish sifatini oshirishga yo‘naltirish; oliy ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlikda o‘quv-metodik jarayonni tashkil

etish, moddiy-texnik bazadan unumli foydalanish masalalarini ko‘rib chiqish; texnikum faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha axborotlar va hisobotlarni eshitish, ta‘lim tashkilotining sanitariya-gigiyenik holati, yong‘inga qarshi amalga oshiriladigan ishlar, mehnatni muhofaza qilish, o‘quvchilarning sog‘lig‘i va hayotiga oid hamda boshqa masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilish; texnikum guruh murabbiylari faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni eshitish; qabul komissiyasining texnikumga o‘quvchilarni qabul qilish yuzasidan

hisobotini eshitish; o‘quvchilarga ta‘lim berishda o‘qitishning ilg‘or pedagogik va axborot-

kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni tatbiq etish choralarini ko‘rish; o‘quvchilarni yuksak ma‘naviy-axloqiy, umuminsoniy va milliy ruhda, o‘z Vatani, xalqini ardoqlovchi, tinchlik va barqarorlikka qaratilgan milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish va joriy etish; xalqaro va qo‘shma ta‘lim dasturlari kadrlar tayyorlash masalalarini muhokama

qilib borish; texnikumda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta‘lim samaradorligini

oshirish bo‘yicha zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlar qabul qilish; o‘quvchilarni kursdan kursga o‘tkazish, kursda qoldirish, chetlashtirish, o‘qishga tiklash, bitiruvchilarga o‘qishni tamomlaganlik to‘g‘risidagi davlat namunasidagi hujjatlar berish masalalarini ko‘rib chiqish;

Texnikum bitiruvchilariga beriladigan diplom va diplom ilovalari, sertifikat blankalari, dublikatlar bilan ta‘minlash hamda QR-kod qo‘yish tizimi orqali to‘ldirilishi va tarqatilishini ta‘minlash;

Texnikum bitiruvchilarini bandligini ta'minlash uchun ish beruvchi korxona va tashkilotlarni jalb qilgan holda mehnat yarmarkalari va "Karyera kuni" tadbirlarini tashkil qilish;

Texnikum bitiruvchilarining bandligini ta'minlash va monitoringini yuritish; yuqori malakali pedagoglarning ish tajribasini o'rganish va ommalashtirish, ularni davlat mukofotlariga tavsiya etish, yosh pedagog o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish; pedagog kadrlarga dars soatlari taqsimotlarini muhokama qilish va guruh rahbarlari hamda ishlab chiqarish ta'limi ustalarini guruhlarga biriktirish masalalarini ko'rib chiqish; o'z vakolati doirasida ichki hujjatlarni tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish;

chin yetim, yetim, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish masalalarini ko'rib chiqish; direktor o'rinbosarlari, tarkibiy bo'linma rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

Kengash texnikum faoliyatiga taalluqli bo'lgan boshqa muhim masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.

27. Texnikum tarkibida kasaba uyushmasi, ota-onalar kengashi, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilot, murabbiylar kengashi va ta'limtarbiya jarayoniga daxldor bo'lgan boshqa jamoat tuzilmalari tashkil etiladi.

28. Texnikumda kafedralar va tegishli oliy ta'lim tashkilotlarining kafedra filiallari tashkil etilishi mumkin.

Tashkil etilgan kafedralar ular faoliyati to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

29. Texnikumning pedagog kadrlari va tegishli oliy ta'lim muassasasi kafedralarining professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda ta'lim sifatini oshirish borasida hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

30. Texnikum direktori ta'lim tashkilotidagi o'quv-tarbiya va metodik ishlar samaradorligi bo'yicha Agentlik yoki uning hududiy boshqarma yig'ilishlarida hisobot beradi.

5-bob. Kasbiy ta'lim tashkilotini boshqarish

31. Texnikumni boshqarish direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Texnikum direktori Kasbiy ta'lim agentligi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi; direktorning o'rinbosarlari Toshkent shahar kasbiy ta'lim boshqarmasi

boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Texnikum direktori: texnikum faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi va texnikumga yuklangan

vazifalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi; o'rinbosarlar vakolatlarini belgilaydi, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, texnikumning tarkibiy bo'linmasi rahbarlari vakolatlarini, ularning faoliyati uchun javobgarligini belgilaydi; texnikum

faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Agentlik va uning hududiy boshqarmalari, buyruqlari va ko'rsatmalari amalga oshirilishini tashkil etadi;

qonunchilik hujjatlariga asosan texnikum nomidan ish olib boradi, barcha tashkilotlarda uning vakili sifatida qatnashadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi;

Texnikum pedagogik kengashiga raislik qiladi;

texnikum tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi; texnikum o'qituvchi va xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

texnikum tarkibiy bo'linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi; texnikum pedagogik xodimlari va o'quvchilari uchun bajarilishi majburiy

bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

texnikumning tashkiliy va moliyaviy faoliyati masalalarini hal qiladi; texnikumning mol-mulkiga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish bo'yicha belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi; tayyorlanadigan kasb va mutaxassisliklar namunaviy ishchi o'quv reja

va dastur asosida ishchi o'quv reja va dasturlarni tasdiqlaydi; o'quv jarayoni grafigini ish beruvchi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi; tegishli kasb va mutaxassisliklar fan va amaliyotlari bo'yicha o'quv

adabiyotlarni bilan ta'minlashni tashkil qiladi; umumkasbiy va maxsus fanlardan o'qitish materiallari to'plamlari ishlab

chiqilishini ta'minlaydi; texnikumning shtat jadvallari va xarajatlar smetasini tasdiqlaydi; texnikum o'qituvchilari va boshqa xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etadi, o'rnak ko'rsatgan texnikum xodimlariga unvonlar berish va davlat mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risida takliflar kiritadi.

texnikum direktori qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6-bob. Pedagog kadrlar va o'quv-tarbiyaviy xodimlar

32. Texnikumda pedagog kadrlar, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar faoliyat yuritadi.

33. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq pedagogik faoliyat bilan bog'liq lavozimlar ro'yxati Agentlik tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu tasdiqlangan ro'yxatdagi xodimlar pedagog kadrlar deb yuritiladi.

34. Pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilishi mumkin.

Zarurat bo'lganda Texnikum ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish uchun jalb etishi mumkin.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan Texnikumda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga haqli;

O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq pedagoglik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlangan shaxslarning texnikumda pedagog sifatida faoliyat olib borishiga yo'l qo'yilmaydi.

35. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning mutaxassislari o'rindoshlik asosida yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soatbay ish haqi to'lash shartlari asosida pedagogik faoliyatga jalb etilishi mumkin.

36. Pedagoglarning kasbiy darajasiga doir talablar Mashg'ulotlarning milliy klassifikatorida hamda pedagogning kasbiy standartlarida belgilanadi.

37. Texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarning huquq va majburiyatlari texnikumning ichki tartib-qoidalari, odob-axloq qoidalari va lavozim yo'riqnomalarida belgilanadi.

38. Texnikumning o'qituvchi va boshqa xodimlari tarkibini davriy attestatsiyadan o'tkazish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

39. Texnikumda faoliyatini olib borayotgan umumta'lim fanlari o'qituvchilarining malakasi A. Avloniy nomidagi pedagogik milliy mahorat instituti va hududiy pedagogik mahorat markazlarida, maxsus fan o'qituvchilarining malakasi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malakasi hududiy ilg'or kasbiy mahorat Texnikumi va belgilangan tartibda tegishli soha bo'yicha malaka oshirish faoliyatini olib borish huquqiga ega tashkilotlarda oshiriladi.

40. Ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilinadi va mahalliy pedagoglarni chet elga malaka oshirish va stajirovka o'tashga yuboriladi.

7-bob. Jamoat tashkilotlari

41. Texnikumda o'quvchi, pedagog xodim, ma'muriy va yordamchi xodimlarni birlashtiruvchi jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Jamoat tashkilotlarining faoliyati amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

42. Texnikum o'quvchilarining yoshlar ishlari bo'yicha boshlang'ich tashkiloti jamoatchilik asosida tashkil etilib, yoshlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi hamda oshkoralik va adolat tamoyillari asosida ish yuritadi.

43. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmasi qo'mitasi texnikum xodimlari va o'quvchilarining ko'ngilli jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etiladi.

44. Texnikumda xodimlar o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida Kasaba uyushmasi qo'mitasi kasaba uyushmalari to'g'risidagi va boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan ish ko'radi.

8-bob. Texnikumning huquq va majburiyatlari

45. Texnikum:

O'zbekiston Respublikasi hududida o'z nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan vakolati doirasida shartnomalar va normativ-hujjatlar tuzish, jumladan xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish uchun xorijiy va mahalliy tashkilotlar bilan to'lovkontrakt asosida kadrlar tayyorlash va qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va ushbu Ustavga zid bo'lmagan faoliyatni amalga oshirish; ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchilar

o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida tanlovlar tashkil etish; respublika iqtisodiyoti, xo'jalik va xizmat ko'rsatish sohasida mutaxassislariga bo'lgan talab va real ehtiyojlar asosida belgilangan tartibda tegishli mutaxassislar tayyorlovchi qo'shimcha yo'nalishlar, shartnoma asosida kasbga tayyorlovchi qisqa muddatli o'quv kurslari ochish;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Migratsiya agentligi tomonidan berilgan buyurtmalar bo'yicha Texnikumda kasbga o'qitish jarayonini tashkil etish; belgilangan tartibda mulkni ijaraga oluvchi va ijaraga beruvchi sifatida faoliyat

yuritish hamda bo'sh turgan mulkini Agentlik ruxsati asosida ijaraga berish; to'lovkontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan mablag'larni texnikumning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga va ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy o'quv-texnik vositalar, mebellar bilan ta'minlashga, texnikum xodimlarini ijtimoiy himoyalashga va ularning faoliyat samaradorligini oshirishni rag'batlantirishga sarflash huquqiga ega;

Texnikum qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

46. Texnikum:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'lim agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik deb yuritiladi) buyruqlari, boshqa qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Ustavda belgilangan vazifalarni bajarishga; davlat ta'lim standartlari, malaka talabi, o'quv reja va fan dasturlari asosida

yuqori sifatli kasbiy ta'limni berishga; texnikum axborot-kutubxona fondini umumiy o'quvchilar sonini hisobga olgan holda zamonaviy talabga javob beradigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va o'qitish materiallari to'plamlari, shuningdek, badiiy adabiyotlar bilan yetarli darajada muntazam ravishda to'ldirib borishni ta'minlash hamda o'quv jarayoniga interaktiv, raqamli va innovatsion o'qitish texnologiyalarini joriy etishga; texnikum o'qituvchilari malakasini oshirish, tajriba almashinuvini tashkil etish

va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga; ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishga;

pedagogik faoliyatning sifati, ijtimoiy maqomi, nufuzi va obro'-e'tiborini oshirish borasida faoliyat ko'rsatishga; mehnat muhofazasi talablariga javob beradigan ta'lim-tarbiya va mehnat

sharoitlarini yaratishga majbur;

Texnikum qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

9-bob. Ta'lim oluvchilar

47. Texnikumga o'qishga qabul qilingan fuqaro ushbu kasbiy ta'lim tashkiloti o'quvchisi hisoblanadi.

48. O'qishda erishgan yutuqlari, o'quv-ishlab chiqarish, ijodiy faoliyat va texnikumning boshqa ishlarida faol qatnashgan o'quvchilarga moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning turli xil shakllari qo'llaniladi.

49. 2026/2027 o'quv yilidan boshlab texnikumda dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilarga maxsus platforma orqali stipendiya to'lash tizimi yo'lga qo'yiladi.

50. Texnikum o'quvchilarining huquqlari:

Kasbiy ta'lim tashkiloti faoliyatiga doir masalalarni muhokama va hal etishda bevosita yoki bilvosita (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari orqali) ishtirok etish; belgilangan tartibda kasbiy ta'lim tashkilotlari ma'muriyatining buyruqlari ustidan shikoyat qilish; ta'lim dasturlari bo'yicha ta'limni davom ettirishini to'xtatish bo'yicha kasbiy

ta'lim tashkiloti rahbariyatiga murojaat qilish; axborot-kutubxona, kasbiy ta'lim tashkilotining o'quv, ijtimoiy, davolash va boshqa bo'linmalari xizmatlaridan kasbiy ta'lim tashkiloti ustavida belgilangan tartibda bepul foydalanish; kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan turli ko'rik tanlovlarda

belgilangan tartibda ishtirok etish; ish beruvchilar tomonidan tavsiya qilingan ish joylarida ishlash bo'yicha

murojaat qilish; ta'lim olishda kasbiy ta'lim dasturlarida va boshqa normativ-huquqiy

hujjatlarda belgilangan huquqlardan foydalanish huquqiga ega;

Texnikum o'quvchilari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

51. Texnikum o'quvchilarining majburiyatlari:

Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarni o'quvchilar belgilangan muddatlarda bajarishi hamda bilim va ko'nikmalarni egallashga; uzrsiz sabablarga ko'ra dars mashg'ulotlarini qoldirmaslik;

ushbu Ustavga, Texnikumning ichki tartib-qoidalariga, odob-axloq qoidalariga hamda o'quv intizomiga rioya qilishga; texnikum binolari va uning

mol-mulkini asrab-avaylashga; to'lov-kontrakt bo'yicha

majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga;

kasbiy ta'lim tashkiloti hududida uyali telefonlardan foydalanishni tartibga soluvchi tegishli ichki tartiblarga rioya qilishga majburdir;

Texnikum o'quvchilari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

10-bob. Texnikumni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minoti

52. Texnikumning faoliyatini moliyalashtirish belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan va tasdiqlangan xarajatlar smetalariga muvofiq amalga oshiriladi.

53. Texnikum o'z ustavida belgilangan maqsadlarga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

54. Davlat Texnikumi faoliyatini moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

Davlat budjeti va to'lov-kontrakt hisobidan shakllangan mablag'lar;

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari tomonidan Texnikum faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag'lar;

Texnikumning tadbirkorlik faoliyatidan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan shartnoma asosida pulli xizmat ko'rsatish, bino va inshootlarni, jihoz va anjomlarni ijaraga berishdan olingan daromadlar; jismoniy va yuridik shaxslarning qonun bilan taqiqlanmagan homiylik

xayriyalari, mahalliy hamda xalqaro tashkilotlarning grantlari; qonun

hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

55. Texnikum shtatlar jadvali tasdiqlangan namunaviy shtatlarga muvofiq belgilanadi.

56. Texnikum o'quvchisining kasbiy va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, budjetdan tashqari mablag' ishlab topish maqsadida aholiga pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha turli sohalar bilan bog'liq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

57. Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatdan olingan daromad hisobiga sotib olingan mol-mulk texnikumning mol-mulki tarkibiga kiritiladi.

58. Texnikumning mol-mulki va pul mablag'lari sarflanishi uchun bevosita uning rahbari javobgar hisoblanadi.

59. Texnikum tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy va statistik hisobot yuritiladi.

60. Texnikum xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish hamda ish haqiga ustamalar qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

61. Texnikumning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

62. Texnikumni moliyalashtirish Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan amalga oshiriladi. Agentlik tomonidan xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilish uchun tanlangan Texnikum hamda Ilg'or kasbiy mahorat Texnikumi bundan mustasno.

11-bob. Qayta tashkil etish va tugatish

63. Texnikumni qayta tashkil etish yoki tugatish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.